

## O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI YARATISHNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14268813>

**Qodirova Nozima Rasulovna**

*Buxoro davlat universiteti*

*Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Tadbirkorlik iqtisodiyotning eng moslashuvchan, o'zgarib turuvchi talabga tez javob beruvchi sohasi hisoblanib, turli ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, iste'molchi uchun zarur bo'lgan mahsulot va xizmatni yetkazib berish muammosini zudlik bilan hal etadi. Shu bilan birga, ular aholi ehtiyojlarining o'zgarishi natijasida mahsulot turlarini o'zgartirish va ishlab chiqarishga joriy etishni yirik ishlab chiqarishga nisbatan kam xarajat qilgan holda amalga oshira oladi. tadbirkorlikning ahamiyati, ayniqsa, ko'lami jihatidan katta bo'lmagan yangi bozorlarni o'zlashtirishda yaqqol namoyon bo'ladi.

### **Kalit so'zlar**

tadbirkorlik, pul resurslari, jamg'arma, tijorat banklari, xorijiy valyuta, kredit, infrastruktura, tovafr, iste'molchi.

Tadbirkorlikni shakllantirish uchun iqtisodiy, ijtimoy, huquqiy va boshqa muayyan sharoitlar yaratilishi kerak. Iqtisodiy sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- tovarga bo'lgan talab va taklif;
- xaridor sotib olishi uchun tovar turlarining mavjudligi;
- xaridor sotib olishi uchun kerak bo'lgan pul hajmining mavjudligi;
- ishchilarning maoshiga, ya'ni sotib olish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ishchi o'rinlarining, ishchi kuchlarining ortiqchaligi yoki yetishmovchiligi.

Pul resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, kiritilgan kapitaldan olinayotgan daromad miqdori va o'z ishbilarmonlik operastiyalarini moliyalashtirish uchun olinmoqchi bo'lgan kredit miqdori iqtisodiy sharoitga ta'sir etadi. Bu ishlarning barchasi bilan bozor infrastrukturasini tashkil qiladigan turli xildagi tashkilotlar shug'ullanadi. Tadbirkorlar shunday tashkilotlar bilan doimiy aloqada bo'lib, tijorat operastiyalarini amalga oshiradi.

Moliya xizmatini ko'rsatuvchi banklar, xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, energiya, mashina va uskunalar, ishlab chiqarish vositalari

bilan ta'minlovchilar; tovarni xaridorga yetkazuvchi ulgurji va chakana savdogarlar; kasbiy, yuridik buxgalteriya xizmatlarini, vositachilik xizmatini ko'rsatuvchi firma va korxonalar; ishchi kuchini yollashda yordam beruvchi ishga joylashtirish agentliklari; ishchi va mutaxassis xizmatchilarni tayyorlayotgan oliy o'quv yurtlari; reklama, transport va sug'urta agentliklari; aloqa va axborotni uzatish vositalari ushbu tashkilotlar tizimini tashkil etadi.

Tadbirkorlikning shakllanishi iqtisodiy va ijtimoiy sharoit bilan chambarchas bog'liq. Tadbirkorlik shakllanishining iqtisodiy sharoitiga ijtimoiy sharoit yaqin turadi. Ijtimoiy sharoit, avvalo, iste'molchilarning didi va zamon talabiga javob bera oladigan tovarlarni sotib olishga intilishi bilan belgilanadi. Turli bosqichlarda ushbu talab o'zgarib turishi mumkin. Bunga ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liq bo'lgan axloqiy va diniy me'yorlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu me'yorlar xaridorlarning turmush tarziga va bu orqali tovarlarga bo'lgan talabiga bevosita ta'sir etadi. Ijtimoiy sharoit shaxsning ishga bo'lgan munosabatiga o'z ta'sirini o'tkazadi, bu esa, o'z navbatida, tadbirkor taklif etayotgan maoshning miqdoriga, mehnat sharoitiga bo'lgan munosabatga ta'sir etadi.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllanishida ishbilarmon xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish masalalarini hal etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tadbirkorlik faoliyatini olib borishning zamonaviy uslublarini o'rganishni tashkil etish, xodimlarni o'qitish va qayta o'qitish, ularga rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgatish, tadbirkorlarni o'qitish uchun o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish, tadbirkorlar uchun xodimlarni tanlash bo'yicha maslahat markazlarini ochish kerak.

Har bir tadbirkorlik faoliyati tegishli huquqiy muhitda kechadi. Shuning uchun kerakli huquqiy sharoit yaratish katta ahamiyatga ega. Bu narsa birinchi navbatda tadbirkorlik faoliyatini tartibga keltiruvchi farmonlar, qarorlar va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib beruvchi qonunlarning mavudligi, ya'ni korxonalarni ro'yxatdan o'tish jarayonining qisqa va oddiy bo'lishi; soliq qonunchiligini takomillashtirish; qo'shma korxonalar faoliyatini rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga bunga kichik tadbirkorlik ishlariga ko'maklashish hududiy markazlari ishini takomillashtirish, statistika shakli va hisob-kitobini takomillashtirish ham kiradi. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy kafolati masalasini hal qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada jadal rivojlanishni ta'minlash maqsadida qonunchilik bazasini takomillashtirib borish ob'ektiv zarurat hisoblanadi. tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy

mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoni alohida ahamiyatga ega, chunki ushbu farmonda xususiy mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirish, tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoit yaratish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga asosiy e'tibor qaratilgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan qarorlarning amaliyotga keng tadbiriq etilishi, tekshirish ishlarining qisqarganligi, biznes yuritish uchun moliya va vaqt xarajatlarining kamayganligi, ro'yxatga olishning xabardor qilish tizimining joriy etilishi natijasida, ularning tashqi savdo ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Shuningdek kichik biznes subyektlariga yengillik berish maqsadida 2019-yil 27-iyun sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5755-sonli farmoni imzolandi va bu farmonga ko'ra 2019-yil 1-oktyabr sanasidan boshlab qo'shimcha qiymat solig'i 15% etib belgilandi. Yurtimizda so'nggi 3 yildan ortiq vaqt mobaynida tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi vositalarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, ularning kredit resurslaridan foydalanishlarini kengaytirish hamda mamlakatimiz bank tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 2017-yil 17-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu jamg'arma tashkil etilgunga qadar davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan joylarda tadbirkorlarning muammolari o'rganildi, ulardan tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli takliflar olinib, xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqildi. Xususan, ular tomonidan banklardan kredit olish paytida garov ta'minoti yetishmasligi, tijorat banklaridagi kreditlar foizi yuqoriligi muammo sifatida ta'kidlangan. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida maxsus jamg'arma tashkil etish zarurati tug'ildi.

Jamg'arma tijorat banklari tomonidan berilayotgan kredit summasining 50%igacha (lekin 2,0 mlrd. so'mdan ko'p bo'lmagan) miqdorda kafilliklar ajratmoqda. Shuningdek, jamg'arma tomonidan tijorat banklari kreditlari bo'yicha foizli xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiya berish shaklida moliyaviy yordam ko'rsatilishi ko'zda tutilgan. Kompensatsiya-bu davlat tomonidan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun beg'araz yordam. Bunday tarzdagi yordam nafaqat Markaziy Osiyo davlatlarida, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining boshqa mamlakatlarida ham mavjud emas. Kompensatsiya mablag'larining asosiy manbai

davlat byudjeti mablag'lari ekanligini inobatga olsak, bu tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanishiga yaqqol misoldir. Jamg'armaning ishonchli resurs bazasini ta'minlash, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yagona mexanizmini yaratish maqsadida davlat tomonidan 50 million AQSh dollari va qariyb 250 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar ajratildi. Shuningdek, qarorda har yili jamg'armaga davlat byudjeti hisobidan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik sof daromadining bir qismi o'tkazib borilishi belgilangan. Bundan tashqari, xalqaro moliya muassasalari, xorijiy hukumat tashkilotlari va boshqa donორlarning jalb etiladigan grantlari Jamg'arma resurslarining qo'shimcha manbalari sifatida belgilangan.

Qabul qilingan ushbu qaror Respublika bank-moliya tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy himoya qilish va kafolatlarini ta'minlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, biznes subyektlarining kredit resurslaridan foydalanishi imkoniyatlarini kengaytirish va shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda aholi hayot darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda jamg'arma tomonidan tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun quyidagi ekvivalentda kompensatsiya berish amaliyoti joriy etilgan:

- milliy valyutada, qiymati 8 milliard so'mdan ko'p bo'lmagan, qayta moliyalashtirish stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan foiz stavkasida -5 foizli punkt miqdorida;

- milliy valyutada, qiymati 8 milliard so'mdan ko'p bo'lmagan miqdorda, qayta moliyalashtirish stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan foiz stavkasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 17-mart PQ-2844-sonli qaroriga 2-ilovada ko'rsatilgan tumanlarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni bilan tasdiqlangan «Obod qishloq» dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalar uchun - 8 foizli punkt miqdorida;

- milliy valyutada, qiymati 8 milliard so'mdan ko'p bo'lmagan miqdorda - yosh tadbirkorlar tashabbusi bilan ishlab chiqilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Yoshlar ittifoqining tavsiyasi bilan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari hisobidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar bo'yicha - banklar xarajatlarini qoplash uchun 3 foizli punkt miqdorida;

- xorijiy valyutada, qiymati ekvivalentda 8 milliard soʻmdan koʻp boʻlmagan miqdorda – tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 40 foizi, ammo 3 foizdan ortiq boʻlmagan miqdorda;

- xorijiy valyutada – 2017 yil 5-sentyabrgacha issiqxonalar qurish, intensiv bogʻlar yaratish va sovutkichlar qurish uchun xalqaro moliya muassasalari kredit liniyalari hisobiga ajratilgan valyuta kreditlari boʻyicha–belgilangan foiz stavkasining 50 foizi miqdorida. Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash borasida xorijning yetakchi davlatlari tajribasini oʻrganish hamda amaliyotda joriy etish oʻzining ijobiy samarasini beradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga munosib tarzda kirib borishida kichik biznes muhim rol oʻynaydi. Chunki koʻplab biznes tahlilchilari va tadqiqotchilar XXI asrda tadbirkorlik qator mamlakatlarda iqtisodiyotning dinamik qismiga aylanib, milliy iqtisodiyot taraqqiyotining mustahkam tayanchini tashkil etadi degan fikrdalar. Boshqacha qilib aytganda, kichik biznes har qanday davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab yashnashining asosiy negizi boʻlib, bozor munosabatlariga oʻtish sharoitida iqtisodiyotning tayanch sohasi sifatida tan olingan. Shu bois mamlakat yalpi ichki mahsulotining oʻsish surʼatlari hamda aholi farovonligining oshishi hal qiluvchi darajada aynan tadbirkorlikning rivojlanishiga bogʻliq.